TIL VA YOZUV: YOZUV TURLARINING KELIB CHIQISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Qobiljonova Xumoraxon
Andijon davlat chet tillari institute 106-guruh talabasi
Ilmiy maslahatchi: **Yuldosheva Sadoqatoy**

Annotatsiya. Ushbu maqolada til va yozuv munosabati, yozuvning tarixiy bosqichlari va yozuvning o'tmishdagi o'rni va ahamiyati aks ettirilgan. Yozuv turlarining rivojlanish bosqichlari, ularning qanday paydo bolganligi va hozirgi jamiyatga bolgan ta'sirini ifodalaydi. Bundan tashqari, yozuvning rivojlanishi va uning hozirgi hayotga aloqasini, piktografik, ideografik, bo'g'inli va harf-tovush yozuvlarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiladi. Asrlar davomida o'zbek xalqi ishlatib kelingan qadimgi turkiy, arab, lotin va krill yozuvlari haqida ma'lumot berilib, yozuvning ilm-fan, madaniyat va ma'naviy merosini saqlashdagi ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: til**,** yozuv, nutq, piktografik yozuv, ideografik yozuv, logografik yozuv, fonografik yozuv, alifbo, qadimgi turkey yozuv, arab yozuvi, lotin yozuvi, yozma nutq, krill yozuvi

Kirish. Til insonlar o'rtasidagi asosiy muloqot vositasi hisoblanib, kishilar o'rtasida aloqa o'rnatish, fikr almashish va tajriba oshirish imkoniyatini beradi. Til-insoniyatning eng muhim ijtimoiy hodisalaridan biri. Inson o'z fikrini til orqali namoyon qiladi, his-tuyg'ularini boshqalarga yetkazish va o'zida bo'lgan barcha bilimlarni kelajak avlod uchun yetkazishga xizmat qiladi. Til jamiyat bilan birga rivojlanadi hamda xalqning tarixi, madaniyatini o'zida aks ettiradi.

Dastlab, insonlar og'zaki nutq orqali muloqot qilgan. Ammo, og'zaki nutqning ko'plab cheklovlari mavjud bo'lgan. Jamiyat rivojlangani sari ma'lumotlarni saqlash, qonun-qoidalarni qayd etish va buyuk insonlarni kelajak avlodlarga tanitish zaruriyati tug'ilishni boshladi. Ana shu ehtiyojlar tufayli yozuv paydo bo'ldi.

Yozuv insoniyat erishgan eng katta madaniy yutug'lardan biridir. Yozuvni o'z aqli va madaniyati bilan yaratgan. Tilning asosiy vazifasi insonlar o'rtasida aloqa o'rnatish bolsa, yozuv shu aloqani vaqt va makon jihatidan kengaytiradi. Yozuv kishilik jamiyati taraqqiyotining muayyan bosqichlarini, xalq tarixi, etnografiyasini adabiyot va san'at tarixini, tilning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvsiz tilning va xalqning tadrijiy taraqqiyotini o'rganib bo'lmaydi.

Metodlar.

1. YOZUVNING KELIB CHIQISHI VA SHAKLLANISHI.

Tilning paydo bolishi insoniyat tarixidagi muhim burilishlardan biri hisoblanadi. U uzoq tarixiy jarayon davomidan shakllangan va turli belgilar takomillashuvi natijasida yuzaga kelgan. Eng qadimgi yozuv tizimining ayrimlari Mesopotamiya va Qadimgi Misr hududlarida miloddan avvalgi III ming yillik boshlarida yuzaga kelgan. Mesopotamiyada xo'jalik ehtiyojlar mixxat yozuvini shakllanishiga turtki bo'lgan. Qadimgi Mirsda esa iyerogliflar yozuvi shakllangan.

2. YOZUVNING ASOSIY TURLARI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.

Yozuv tarix davomida turli shakllarda rivojlangan. Ularni o'rganish qanday qilib yozuvning oddiy tasvirdan murakkab tizimgacha rivojlanganini ko'rsatadi.

2.1. Piktografik yozuv

Piktografik yozuv-fikrni rasm orqali ifoladalashga asoslangan yozuv turi hisoblanadi. Bu yozuv shaklida insonlar hayvonlar, odamlar va turli harakatlarning tasviridan foydalanib, ma'lum bir xabarni

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

yetkazishda foydalanilgan. Piktografik yozuv, asosan, ko'pincha rasm orqali ifoda qilinadi. Biroq bunday tasvirlar murakkab va mavhum tushunchalarni aniq ko'rsata berolmagan.

2.2. Ideografik va logografik yozuv

Ideografik yozuvda belgilar alohida tovushlarni emas, balki tushuncha yoki ma'noni anglatadi. Logografik yozuv ma'lum bir so'z yoki tushunchani ifodalaydi. Bu belgilar orqali yozuvning imkoniyati kengaygan. Ular yordamida faqat ko'z orqali ko'riladigan narsalar emas, balki murakkab tushunchalarni ham ifodalash mumkin bo'lgan.

2.3. Bo'g'inli yozuv

Bo'g'inli yozuv, ya'ni sillabik yozuvda har bir belgi bir bo'g'inni ifodalaydi. Bu yozuv turida so'zlar alohida harflardan emas, balki bo'g'inlarni ifodalovchi belgilar ketma-ketligidan tuziladi.

2.4. Fonografik yozuv

Fonografik yozuv tilning tovush tomonini ifodalashga asoslanadi. Bunday tizimlarda belgilar tovushlar yoki tovushlar birikmalariga mos keladi. Fonografik yozuvning muhim ko'rinishlari harf-tovush va bo'g'in yozuvlaridir. Finikiya yozuvi alifbo tarixidagi muhim bosqichlardan biri bo'lgan. Uning ta'sirida yunon yozuvi shakllanib, yunonlar undosh bilan birga unlilarni ham harflar orqali ifodalash tizmini rivojlantirdi.

3. O'ZBEK YOZUVINING TARIXIY TARAQQIYOTI

O'zbek yozuvi tarixi xalqimizning siyosiy, madaniy va ma'naviy hayoti bilan bog'liq. Turli tarixiy davrlarda hududimizda bir necha yozuv tizimlaridan foydalanilgan. Ular orqali boshqaruv, savdo, ilm-fan va diniy hayotga oid ma'lumotlar yozilgan.

3.1. Qadimgi turkiy yozuv

Qadimgi turkiy yozuvlar turkiy xalqlar tarixini o'rganishda muhim hisoblanadi. Ularning mashhur namunalaridan biri O'rxun-Enasoy bitiklaridir. Ushbu bitiklar qadimgi xalqlarning siyosiy hayoti hamda dunyoqarashi haqida ma'lumot beradi.

Bu yozuv bugungi o'zbek lotin alifbosining bevosita oldingi shakli hisoblanmaydi, biroq ular turkiy xalqlarning qadimiy yozma an'analarini o'rganishda muhim o'rin tutadi.

3.2. Arab yozuvi

VIII asrdan boshlab Markaziy Osiyoda islom madaniyatining keng tarqalishi bilan arab yozuvi ham muhim o'ringa ega bo'ldi. Keyingi asrlarda bu yozuv turkiy tillarda keng qo'llanildi. Arab yozuvi asosidagi yozma meros xalqimizning ko'p asrlik ma'naviy boyligini saqlashga xizmat qilgan. Shu bilan birga, arab yozuvining o'zbek tili tovush tizimiga moslashuvi tarix davomida ayrim imlo va ifoda xususiyatlarini yuzaga keltirgan.

3.3. Lotin yozuviga o'tish

XX asrda O'zbekistonda yozuv tizimini o'zgartirish jarayonlari yuz berdi. 1929-yildan lotin yozuvi asosidagi alifbo keng joriy etila boshladi. Lotin yozuviga o'tish savodxonlik va ta'lim sohalarida muhim o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Biroq keyingi siyosiy jarayonlar natijasida yozuv tizimi yana o'zgardi.

3.4. Krill yozuvi

1940-yilda o'zbek yozuvi krill alifbosi asosiga o'tkazildi. Shundan so'ng ko'plab darsliklar, ilmiy asarlar, badiiy adabiyot namunalari va rasmiy hujjatlar krill yozuvida nashr etildi.

1941-Kirill yozuvi bir necha o'n yillik davomida O'zbekistondagi ta'lim va matbuot tizimida asosiy yozuv vazifasini bajardi. Shu sababli bugungi kunda ham krill yozuvida yaratilgan katta hajmdagi ilmiy va madaniy meros mavjud.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, til va yozuv jamiyat uchun birdek ahamiyatlidir, ammo farqli hodisadir. Til kishilar o'rtasidagi muloqotning asosiy vositasi, yozuv bo'lsa til birliklarini grafik belgilar orqali ko'rsatilgan shakli va ularni uzoq vaqt davomida saqlash imkoniyatini beradi.

Yozuvning taraqqiyoti piktografik ifodalashdan ma'noni bildiruvchi belgilar tizimlariga, bo'g'inli va fonografik yozuv shakllariga qadar murakkab tarixiy jarayonni qamrab oladi. Har bir yozuv turi o'z davrining ijtimoiy va madaniy ehtiyojlariga mos ravishda rivojlangan.

O'zbek yozuvi tarixida qadimgi turkiy yozuvlar, arab yozuvi, lotin va krill alifbolari muhim o'rin egallaydi. Bu yozuvlar xalqimizning turli tarixiy davrlardagi hayoti, madaniyati va ilmiy merosini o'rganishga yordam beradi.

Bugungi kunda yozuvdan to'g'ri foydalanish, imlo me'yorlariga rioya qilish, tarixiy yozma manbalarni asrash va milliy tilning imkoniyatlarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Husinova, Sh. Yozuv va uning turlari. — Urganch: Al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti. — 4–7-betlar. Elektron manba .
2. O'roqov, H. va boshqalar. O'zbek tili praktikumidan laboratoriya ishlanmasi. — Jizzax: Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti, 2007. — Fonetika va grafika bo'limlari. Elektron manba .
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risidagi Qonun. — 1993-yil 2-sentabr. Elektron manba
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risidagi Qonunga o'zgartirishlar kiritish haqida. — 1995-yil 6-may. Elektron manba
5. Normamatov, S. O'zbek tilshunosligi tarixi. — Toshkent: Bookmany print, 2022. — 102 bet. Elektron katalog.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.